

FONETIKA BO'LIMINI O'RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUV ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR TATBIQI

Janibekova Gulmira Nurilla qizi

gulmirajanibekova50@gmail.com

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi

46-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanining Fonetika bo'limini o'rganishda o'quvchilarning yodda saqlash va nutqiy ko'niklamalarini rivojlantirishga yordam beradigan metodlar haqida ma'lumotlar va tavsiyalar berib o'tilgan. Metodik qo'llanmani tayyorlash jarayonida fonetika bo'limining har bir elementiga va o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlariga alohida ahamiyat berilgan va puxta reja asosida ishlab chiqilgan. Bundan taqshqari ushbu qo'llanmada o'quvchilarni kreativ fikrlashga undovchi metodlar ham joy olgan. Metodik qo'llanmadan joy olgan har bir metodning maqsadi va kutilayotgan natija alohida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Nutq tovushlari, tinglab tushunish va farqlay olish ko'nikmasi, og'zaki va yozma nutq, "Xarita" metodi, "Rebusga yashiringan sir" metodi, "Fonetik jadval" metodi, "Oq sandiq va qora sandiq" metodi, "Shirin savollar" metodi.

Kirish(Introduction): Hozirgi kunda globallashuv jarayoni bir muncha tezlashib ketganligini inobatga olgan holda ta'lim tizimi ham o'z navbatida fanlarni o'qitishda bir qancha zamonaviy va ilmiy asoslangan, yuqori natijalarni nazarda tutuvchi va ushbu omillarga javob bera oluvchi metodlarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Ona tili va adabiyot fani o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini, notiqlik qobiliyatini va aktyorlik qobiliyatini ko'rsatib berishga, o'zları erkin fikrlay olishga va o'zgalar fikrini tinglashga, fikrlarni yozma va og'zaki nutqda sof va ravon ifoda etishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la oladigan shaxs sifatida kamol topishida asosiy ko'makdosh bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki ona tili faniga faqatgina fan sifatida emas balki, butun ta'lim tizimini birlashtirib turuvchi ta'limiy jarayon sifatida qarash lozim.

Ona tili va adabiyot ta'limini yanada takomillashtirish, bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida qaralmoqda. Ushbu muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida esa ko'plab ustoz va murabbiylarimiz fidokorona


xizmatlari bilan o‘z hissalarini qo‘shtmoqdalar. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida darslarni tashkil qilish jarayonida ko‘plab interfaol metodlar ishlab chiqilmoqda va amalda qo‘llanib kelinmoqda.

Ushbu metodik qo‘llanma ham ona tili darslarida o‘quvchilarga fan mavzusi yuzasidan bilim va ko‘nikmalarni puxta egallash, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan interfaol metodlar asosida ishlab chiqildi.

Methods (Usullar): “Ona tili fanining Fonetika bo‘limini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari “mavzusini o‘rgatish jarayonida yordam beruvchi interfaol metodlardan foydalanish.

Ushbu maqolda asosan bir qancha yangi metodlarni o‘ylab topib, amaliyotda sinab ko‘rganlarimni tavsiya qilmoqdamon. Bu metodlar orqali o‘quvchilar yodda saqlash qobiliyatini, nutqiy kompetensiyani va tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantiradilar. Shuni alohida ta’kidlab o‘tishni joizki Metodik qo‘llanmadagi barcha interfaol metodlar Fonetika bo‘limiga oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun amalda qo‘llanildi.

1. “XARITA” metodi



Eng avvalo biz siz bilan Ona tili fanining qanday bo‘limlari borligi va ularning har biri qanday bilimlarni o‘rgatishi haqida quyidagi “Xarita” Metodi orqali tanishib olamiz. Ushbu metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarning ona tili fanining bo‘limlarini yodda saqlab qolish qobiliyatini mustahkamlash. Bu metodni qo‘llash uchun men muqaddas ona diyorimizning geografik xaritasidan foyfdalanishga qaror qildim, 12 ta viloyat chegarasi asosida 12 ta savol va ushbu xaritadagi hududlar chegarasini esa bo‘limda o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzular xajmiga binoan belgilab chiqdim. O‘quvchilar har bir hududga savolning javobini yozib chiqadilar. Ushbu xaritada Ona tili fanining bo‘limlari belgilab chiqilgan. Endi sizlar bilan quyidagi atamalarga javob topishimiz kerak bo‘ladi?

Ushbu tushunchalar va keltirilgan atamalar qaysi bo‘limga tegishli?

1. Til tovushlari va ma’no farqlash ;
2. Atash ma’no, ko‘p ma’no;

- 3.** Bitishuv, moslashuv, boshqaruv;
- 4.** Boshiga ko'taradi, ichiga sig'madi;
- 5.** Tovush o'zgarishlari, me'yor;
- 6.** Qo'shib yozish, ajratib yozish;
- 7.** Mustaqil, yordamchi;
- 8.** So'zlarning kelib chiqish tarixi;
- 9.** Vergul, tire, ikki nuqta;
- 10.** Moyak, shoti, govona;
- 11.** Qaror qilindi, ijro etildi;
- 12.** Tarjima, izoh;

2. "REBUSGA YASHIRINGAN SIR" metodi


Fonetika mavzusini mustahkamlash uchun bir nechta metodlarni o'quvchilar bilan sinab ko'rdik. Shulardan biri "Rebusga yashiringan sir" metodi. Bunda o'quvchilar rebusni yechish orqali savollarga javob topadilar. Rebusdagi * belgisi esa sanog'iga qarab nechta bo'lsa shu miqdorga teng bo'lган tovush va harflarni olib tashlash kerak ekanligi haqidagi eslatma hisoblanadi. Agar so'z yoki rasm oldidan * belgisi qo'llansa oldindagi harflar olib tashlab o'qiladi. Ba'zan V=B tarzida kelsa bunda tenglik oldindagi Harf tenglikdan keyingi harf bilan o'rin almashinadi.

3. "FONETIK JADVAL" metodi

O'quvchilar tovushlar haqidagi barcha nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqqach ularning nutq tovushlar haqidagi o'rgangan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida yana bir metodni qo'llaymiz. Ushbu metodimiz xuddi kimyo fanidagi Mendaleyev jadvalidek jadval asosida olib boriladi bu jadvalni biz Ona tili faniga asosan "Fonetik jadval" Metodi deb nomladik. Dastavval o'quvchilarga yana bir bora nutq tovushlari haqidagi nazariy bilimlarni berib o'tamiz va ular bilan nazarda tutilgan metodni boshlaymiz.


NUTQ TOVUSHLARI TASNIFI:





Ushbu metodda o‘quvchilar uchun lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosи va bo‘s sh katakchalar taqdim etiladi. Bunda o‘quvchilar tovushlarni Alifbodagi harf, tartib raqami, hosil bo‘lish o‘rnii, til va lablarning harakatiga ko‘ra joylashtiradilar hamda shartli va ogohlantiruvchi ranglar asosida bo‘s sh kataklarni bo‘yab chiqadilar.

ALIF BO								
Aa 	Bb 	Dd 	Ee 	Ff 	Gg 	Hh 	Ii 	
Jj 	Kk 	Ll 	Mm 	Nn 	Oo 	Pp 	Qq 	
Rr 	Ss 	Tt 	Uu 	Vv 	Xx 	Yy 	Zz 	
O‘o 	G‘g 	Shsh 	Chch 	Nng 	/ ’ 			



O‘quvchilar quyidagi bo‘sh katakchalarga yuqorida ta’kidlanganidek shartlarni bajarib chiqadilar va bajarilgan topshiriqni o‘qituvchi nazorati ostida tekshirib chiqib, tahlil qiladilar.

FIKR SIZDAN- IZOH BIZDAN

4“ OQ

SANDIQ VA QORA SANDIQ ” metodi

Navbatdagi metodimiz orqali esa o‘quvchilarning fonetika bo‘limi bo‘yicha bo‘shliqlarini to‘ldirishga harakat qilamiz. Ushbu metodni qo‘llagan vaqtimda asosan o‘quvchilarning ko‘p qismi “ X ” va “ H ” undoshlarining talaffuzi va imlosida bir qancha kamchiliklari borligini aytib o‘tdilar. Men ushbu kamchiliklarni bartaraf etish msaqsadida “ Oq sandiq va qora sandiq ” metodini o‘ylab topdim. Bu metod sharti quyidagicha: eng avvalo o‘quvchilarni qanday vaziyatlarda so‘zlardagi tovushlar “ x ” va “ H ” tarzida talaffuz qilinishi va yozilishi haqida ma’lumot berib o‘tdim va ularga kichik eslatma berdim.

e

Ikcham, ixtiro, ixlos, ixtisos, mix, mirrix

(ti-hota, im-ti-hon, ni-hol, ni-hon)

ahd, shahd (shax-dam)

baxt, taxt, paxta, taxta, shaxta, soxta, daraxt, karaxt

Bu ~~esmalta~~ ~~Tobing Zohid Yulduz Shohid~~ guruhga ajratdim va guruh sardorlari tayinlab ~~m~~ jamoalarga nom ham berdik. Shunday qilib 1-jamoa nomi “ BILIMDONLAR ” 2-jamoa nomi “ ZUKKOLAR ” va bundan tashqari bizga ikkita oq va qora rangli sandiqchalar , shu rangdagi kartochkalar kerak bo‘ladi. Jamoa sardorlari jamoa a’zolari bilan maslahatlashgan holda o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan masofali diktantni kuzatib, oldida turgan

varaqlar diktantning to‘g’ri variantini taqdim etadilar. Taqdim etilgan har bir to‘g’ri javob uchun “Oq sandiq” qa oq rangdagi rag’bat kartasi solinadi, har bir noto‘g’ri javob uchun esa qora rangdagi jarima kartasi solinadi va o‘yin yakunida esa har bir jamoaning sandiqlari ochilib, hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi, g’olib jamoa esa albatta oq sandiqdagi

“Oltin toj” ga egalik qiladilar.

Endi o‘yin shartiga binoan o‘qituvchi tomonidan masofali diktant taqdim etiladi. Bunda o‘quvchilar nuqtalar o‘rniga mos harflarni qo‘yib ko‘chiradilar.

“H” mi yioki “X”?



Javoblar varaqasi:

- | | |
|------------------------|----------------|
| 1. Hassos | 8. maxfiy |
| 2. hatlamoq – xatlamoq | 9. hardamxayol |
| 3. havoza | 10. xalal |
| 4. hazil-mazaX | 11. halak |
| 5. Xaloskor | 12. xaridor |
| 6. Mahtal | 13. xarxasha |
| 7. Maxraj | 14. xayr-ehson |

Natijalar (Results): bo‘limini ham ilmiy maqola talablariga mos tarzda yozib beraman. Bu bo‘limda siz o‘tkazgan kuzatuv, tajriba yoki tahlillar asosida aniq, dalillarga tayangan holda erishilgan yutuqlarni ifodalash muhim. Quyidagi namunaviy matnni moslashtirib ishlatishingiz mumkin: Tadqiqot davomida ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan (jumladan, interfaol usullar, muammoli ta’lim, jamoaviy ishlari, bahs-munozara, klaster, konseptual xaritalar) foydalanishning samaradorligi amaliy kuzatuvlar orqali o‘rganildi.

Tadqiqot ishlari asosida quyidagi natijalarga erishildi:

- 1. O‘quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi ortdi.** Darslarda interfaol metodlardan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga jalgan qilinishi, savollarga javob berishga bo‘lgan ishtiyoqi va darsdan qoniqish darajasi sezilarli ravishda oshdi.
- 2. Kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlandi.** Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, dalil keltirish, izchil mulohaza yuritish malakasining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.
- 3. O‘z fikrini asoslash va jamoada ishlash ko‘nikmalari mustahkamlandi.** Bahs-munozara va kichik guruhlarda bajarilgan topshiriqlar natijasida o‘quvchilarning o‘z fikrida qat’iy turish, bir vaqtning o‘zida boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilish madaniyati rivojlandi.
- 4. Dars jarayonining samaradorligi va ta’lim sifati oshdi.** Metodik yangiliklar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi, darsga kechikishlar yoki passivlik holatlari kamaydi.
- 5. Ijodiy yondashuv va shaxsiy faollilik rivojlandi.** O‘quvchilar mustaqil tarzda referat, tahliliy yozuvlar, matn asosida savol tuzish kabi topshiriqlarni bajara olish darajasiga yetdi, bu esa ularning ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ona tili va adabiyot fanida innovatsion metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash bilan birga, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Agar siz tajriba o’tkazgan sinflar soni, o‘quvchilar soni yoki aniq statistik ma’lumotlaringiz bo‘lsa, ularni kiritib, natijalarni yanada kuchliroq qilish mumkin.



Muhokama (Conclusion): Mazkur maqolada amaliyotda sinovdan o‘tqazgan bazi bir metodlar haqida to‘xtalib o‘tdik. Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish o‘quvchilarda ushbu fan bo‘yicha motivatsiyani oshirishda, mustaqil fikrlash va ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan metodik yondashuvlar ta’lim jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarni darsga faol jalb etish hamda ularda mulohaza yuritish, tahlil qilish, fikrini asoslab bayon qilish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko‘rsatildi.

Mazkur metodlar orqali o‘quvchilarda qat’iyatlilik, jamoada ishlash madaniyati, o‘zaro muloqot olib borish, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, darslarning mazmunan boy va metodik jihatdan qiziqarli o‘tishi ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni faollikka undash, ular orasida o‘z-o‘zini anglash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanida zamonaviy metodlardan samarali foydalanish nafaqat ta’lim mazmunini boyitadi, balki o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, ularning ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlariga to‘laqonli erishish uchun zarur bo‘lgan muhim shartlardan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedova, M., Jo‘raeva, G. (2021). *Ona tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti.
2. Rasulova, N. (2019). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ona tili darslarini tashkil etish*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Qodirova, S. (2020). “Interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi haqida.” *Xalq ta’limi*, №2, 45–49-betlar.
4. Karimov, D. (2018). *Boshlang‘ich sinflarda fonetika materiallarini o‘qitishning samarali yo‘llari*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Abduazizov, A. (2017). *O‘zbek tili sonetikasi*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Xasanboeva, D. (2022). “Ona tili darslarida interfaol metodlar: amaliy tajribalar.” *Ilm va taraqqiyot*, №4, 60–64-betlar.
7. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
8. Jonson, D., & Jonson, R. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning*. Boston: Allyn & Bacon.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2017). *Ona tili fani bo‘yicha umumta ’lim maktablari uchun namunaviy o‘quv dasturi (5–9-sinflar)*. Toshkent.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-sonli qarori. (2018). *Ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida*. Toshkent.